ABDULLA QAHHOR HIKOYALARINING TAHLILI

Sattorova Munisa Majiddin qizi
Qoraqalpog‘iston davlat universitetining
O'zbek filologiyasi fakulteti
Magistratura bôlimi Adabiyotshunoslik:o'zbek adabiyoti mutaxassisligi,
2-kurs magistranti ..
Doi: https://doi.org/10.5281/zenodo.20061572

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek adabiyotshunosligimizning zabardast vakili Abdulla Qahhor hikoyalarining g'oyaviy-mazmuniy jihatlari, qiyosiy tahlili va o‘rganilganlik darajasi bilan bir qatorda hikoyalarning adabiyotdagi ahamiyati haqida kengroq ma’lumotlar ko‘rib chiqiladi.Hikoyalari orqali yozuvchining uslubi,so'z qo'llash mahorati,chuqur psixologizm,badiiy detallardan unumli foydalanish kabi jihatlar tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: yozuvchi uslubi, realizm,ijtimoiy psixologizm, satira va kinoya, ijtimoiylik.

ANALYSIS OF ABDULLAH QAHHOR'S STORIES

Abstract: This article examines the ideological and substantive aspects, comparative analysis, and level of study of the stories of Abdulla Qahhor, a prominent representative of Uzbek literary criticism, as well as broader information about the significance of stories in literature. Through the story aspects such as the writer's style, vocabulary, deep psychologism, and effective use of artistic details are analyzed. In addition, other stories are also analyzed.

Keywords: writer's style, realism, social psychologism, satire and irony, sociality.

АНАЛИЗ РАССКАЗОВ АБДУЛЛЫ КАХХОРА

Аннотация: В данной статье рассматриваются идеологические и содержательные аспекты, сравнительный анализ и уровень изучения рассказов Абдуллы Каххора, видного представителя узбекской литературной критики, а также более широкая информация о значении рассказов в литературе. На примере рассказа анализируются такие аспекты, как стиль писателя, лексика, глубокий психологизм и эффективное использование художественных деталей. Кроме того, анализируются и другие рассказы.

Ключевые слова: стиль писателя, реализм, социальный психологизм, сатира и ирония, социальность.

Kirish

Abdulla Qahhor hikoya janrini yangi bosqichga olib chiqdi. Uning ijodida realizm an’anasi kuchli, lekin u realizmni o‘ziga xos tarzda boyitdi: hayotiy haqiqatni qisqa va lo‘nda ifoda qilish, qahramonlarni tipiklashtirish, satira va kinoya orqali jamiyatni tanqid qilish.Abdulla Qahhor ijodi o‘zbek nasrida realizm an’analarini mustahkamlash, hayot haqiqatini badiiy ifodalash va jamiyat muammolarini ochib berishda muhim o‘rin tutadi. Realizm va ijtimoiylik o‘zaro uyg‘un holda namoyon bo‘ladi.Ushbu tadqiqotning maqsadi Abdulla Qahhor hikoyalarining badiiy-g'oyaviy xususiyatlarini, adibning o'z davrini qalamga olishdagi mahoratini, hikoyalarining tuzilishi va

uslubiy jihatlarini aniqlashdan iborat. Hikoyalari orqali yozuvchining uslubi, so'z qo'llash mahorati, satira va yumordan foydalanish usullari keng tahlil qilingan.

Metodologiya va adabiyotlar tahlili

Tadqiqotda adabiy -estetik, tarixiy qiyosiy,tahliliy-tipologik tahlil usullardan foydalanilgan.

Abdulla Qahhor ijodini o'rganish bo'yicha qator asarlar yaratilgan.Kibriyo Qahhorova "Chorak asr hamnafas" (1987),Ozod Sharafiddinov "Abdulla Qahhor"(1988),Matyoqub Qo'shjonov "Abdulla Qahhor mahorati"(1988)

V. Kirpotin O‘zbek adabiyoti, jumladan, Qahhor ijodining realizm xususiyatlarini tahlil qilgan.L. Klimovich Sovet davri o‘zbek adabiyoti tarixini o‘rganishda Qahhor asarlariga to‘xtalib o‘tgan.N. Vladimirova Qahhorning hikoyanavislik mahorati va janr xususiyatlarini tadqiq etgan.A. Petrosyan Yozuvchining ijodiy uslubi va badiiy tili ustida ish olib borgan.Y. Okudjava Qahhor asarlarini rus tiliga tarjima qilish va targ‘ib qilishda ishtirok etgan.G'arb adabiyotshunosligida E. Allworth, D.L.Montgomery kabi olimlarning ishlarida o'zbek adabiyoti kontekstida Qahhor ijodi o'rganilgan.

Natijalar va muhokama

O‘zbek adabiyotida inson ruhiyati, jamiyat muammolari va hayot haqiqatini chuqur badiiy tahlil etgan ijodkorlardan biri Abdulla Qahhor hisoblanadi.Qahhor hikoyalarida obrazlar individual bo‘lishi bilan birga, ular umumiy ijtimoiy qatlamning vakili sifatida ham tasvirlanadi. Bu “tipiklashtirish” deb ataladi. Masalan, oddiy ishchi obrazlari butun mehnatkashlar qatlamini aks ettiradi, mansabdor obrazlari esa tizimdagi illatlarni timsol qiladi. Shu orqali yozuvchi individual hikoya orqali “umumiy ijtimoiy muammolarni” ko‘rsatadi. Abdulla Qahhor hikoyalarining badiiy qimmati shundaki, ular o‘z davrining ijtimoiy muammolarini aks ettirish bilan birga, bugungi kun uchun ham dolzarb bo‘lib, o‘quvchiga hayotiy, axloqiy va ijtimoiy saboqlar beradi.“Oyimning olovi” hikoyasida bosh qahramonning ichki kechinmalari, jamiyatdagi qiyinchiliklar bilan to‘qnashuvi orqali ijtimoiy va psixologik konfliktlar uyg‘unlashadi.[1] Abdulla Qahhor ijodida “satira va kinoya” asosiy badiiy vosita sifatida ishlatiladi. U jamiyatdagi illatlarni kulgi va istehzo orqali ko‘rsatadi. Satira orqali mansabparastlik, byurokratiya, rasmiyatchilik tanqid qilinadi. Kinoya esa yashirin ma’no berib, o‘quvchini mustaqil fikrlashga undaydi. Misol uchun: “Bemor odamlar” hikoyasida mansabdorlarning befarqligi va rasmiyatchiligi orqali jamiyatdagi tizim muammolari ochiq-oydin tasvirlangan[2].Hikoyalarida jamiyatdagi illatlar, insoniy munosabatlardagi sun’iylik, rasmiyatchilik va ma’naviy bo‘shliq o‘tkir satira orqali ochib beriladi. “Notiq” hikoyasi ham ana shunday asarlardan biri bo‘lib, unda oddiy oilaviy voqea orqali keng ijtimoiy-siyosiy muammolar tanqid qilinadi. Mazkur hikoya yuzaki qaraganda er-xotin o‘rtasidagi oddiy dialogga qurilgandek tuyuladi, biroq aslida unda jamiyatdagi byurokratik tafakkur, rasmiy nutqbozlik va insoniy tuyg‘ularning so‘nishi kabi muhim masalalar yoritilgan.Adibning “Dumli odamlar” hikoyasi ana shu jihatdan alohida ahamiyatga ega bo‘lib, unda realizm va ijtimoiylik o‘zaro uyg‘un holda namoyon bo‘ladi. Avvalo, hikoyaning realizm ruhida yozilganligini undagi voqealar, qahramonlar va muhitning tabiiyligi orqali ko‘rish mumkin. Asarda tasvirlangan Meliboy aka obrazi oddiy, hayotiy, real shaxs sifatida gavdalanadi. U pensioner bo‘lib, o‘z hayotiy tajribasi, dunyoqarashi va ichki kechinmalari bilan o‘quvchiga yaqin turadi. Adib bu obraz orqali o‘sha davr o‘zbek ziyolilarining ma’lum qatlamini aks ettiradi. Qahhor realizmga xos tarzda qahramonning ichki dunyosini ham ochib beradi: uning zerikishi, o‘zini kerakli his qilish istagi, milliy g‘ururi va kinoyali munosabati badiiy jihatdan ishonarli tasvirlangan.

[1] Abdulla Qahhor . “ Tanlangan asarlar’’ .’’O’zbekiston’’Toshkent.2022 yil. 151 bet.

Yozuvchining “To‘yda aza” hikoyasi realizm va ijtimoiy tanqidning o‘ziga xos uyg‘unligini namoyon etuvchi asarlardan biri hisoblanadi. Ushbu hikoyada tashqi tomondan quvonchli voqea — to‘y tasviriberilgan bo‘lsa-da, uning ichki mohiyatida fojeaviylik, ijtimoiy inqiroz va ma’naviy tanazzul yotadi. Hikoyaning boshida Muxtorxon domla obrazi nihoyatda iliq, samimiy va hurmatga sazovor shaxs sifatida tasvirlanadi. Muallif bu obrazni realizmga xos aniq detallar orqali yaratadi: “Dotsent Muxtorxon Mansurov nihoyatda istarasi issiq, nihoyatda dilkash chol...”[3] Ushbu ta’rif orqali yozuvchi qahramonning nafaqat tashqi ko‘rinishini, balki uning ichki dunyosini ham ochib beradi. Ayniqsa, quyidagi iqtibos obrazning ijtimoiy ahamiyatini ko‘rsatadi: “Bu odam mahalla hayotiga, har bir kishining diliga kirib, shu qadar singib ketgan ediki...” Bu yerda Muxtorxon domla jamiyatning markaziy, ma’naviy ustunlaridan biri sifatida gavdalanadi. Realizmning muhim jihatlaridan biri — obrazni rivojlanish jarayonida ko‘rsatishdir.

Xulosa

Abdulla Qahhor hikoyalari ijtimoiy va siyosiy jihatdan chuqur mazmunga ega bo‘lib, ularda ko‘tarilgan muammolar bugungi kun uchun ham dolzarbdir. Uning ijodi orqali jamiyatdagi adolatsizlik, byurokratiya, axloqiy muammolar va inson qadrining ahamiyati ochib beriladi. Qahhor asarlari: real hayotni aks ettiradi, jamiyatni tahlil qiladi, insoniy qadriyatlarni targ‘ib qiladi. Shu sababli uning hikoyalari nafaqat adabiy meros, balki ijtimoiy fikr shakllanishida ham muhim manba hisoblanadi. Abdulla Qahhor hikoyalari ijtimoiy va siyosiy jihatdan chuqur mazmunga ega bo‘lib, ularda jamiyat hayotining muhim muammolari badiiy jihatdan yuksak darajada yoritilgan. Qahhor hikoyalarining bugungi davr uchun ijtimoiy-tarbiyaviy ahamiyati shundaki, ular nafaqat axloqiy tarbiya beradi, balki jamiyatdagi muammolarni yoritadi, adolatni targ'ib qiladi, o'zbek xalqining madaniy merosini saqlashga yordam beradi va yoshlarni emotsional va ijtimoiy rivojlanishga undaydi. Shuningdek, hikoyalar yoshlarni ijtimoiy mas'uliyat va inson huquqlari bo'yicha ongli qarorlar qabul qilishga o'rgatadi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Abdulla Qahhor. Hikoyalar. – Toshkent: Sharq, 2004.
2. G‘ulom Karimov. Abdulla Qahhor hayoti va ijodi. – Toshkent: Fan, 1975.
3. Abdulla Qahhor. O‘tmishdan ertaklar. – Toshkent: Adabiyot va san’at, 1990.
4. Abdulla Qahhor. Tanlangan asarlar. 3 jildlik. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1987.
5. Umarali Normatov. Ijod sehri. – Toshkent: Ma’naviyat, 2006.
6. Hikoya janri poetikasi. – Toshkent: Fan, 2013.
7. O‘zbek hikoyachiligi taraqqiyoti. – Toshkent: Ma’naviyat, 2011.
8. Qo'shjonov, M. (1995). XX asr o'zbek adabiyoti tarixi. Toshkent: O'qituvchi

[3] Abdulla Qahhor . “ Tanlangan asarlar’’ .’’O’zbekiston’’Toshkent.2022 yil. 142 bet.